

O`ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA URG`UNING AHAMIYATI

Farg'ona davlat universiteti Chet tillari fakulteti

1-bosqich talabasi

Sotvoldiyeva Latofatxon Iqboljon qizi

Ilmiy rahbar: Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna

FDU, f.f.f.d. (PhD), katta o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida urg'u hodisasining lingvistik mohiyati va uning kommunikativ jarayondagi ahamiyati tahlil qilinadi. Ingliz tilida urg'u so'z ma'nosini farqlash, axborotni ajratib ko'rsatish va nutqning fonetik strukturasi orqali tinglovchiga muhim ma'lumot yetkazish vositasi sifatida qaraladi. O'zbek tilida esa urg'u ko'proq fonetik xususiyatga ega bo'lib, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushishi bilan tavsiflanadi hamda gapning intonatsion tuzilmasida muhim o'rin egallaydi.

Kalit so'zlar: urg'u, fonetika, intonatsiya, bo'g'in urg'usi, so'z urg'usi, gap urg'usi, fonologiya, talaffuz, qiyosiy tahlil, ma'no farqlanishi, nutq ohangi, kommunikativ funktsiya, fonetik tafovut.

Til fonetik jihatdan boy bo'lishi uchun undagi urg'u, intonatsiya va talaffuz tizimi muhim rol o'ynaydi. Har bir til o'z urg'u qonuniyatlariga ega. Ingliz va o'zbek tillarida urg'uning o'rni va funksiyasi turlicha bo'lib, ularning o'zaro farqlarini o'rganish fonetika va tilshunoslik nuqtayi nazaridan dolzarb masalalardan biridir.

Urg'u — bu so'z yoki gapdagi ayrim bo'g'in yoki so'zning boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinishi orqali ajratilishi. Fonetik jihatdan urg'u tovushning balandligi, kuchi yoki davomiyligi orqali yuzaga chiqadi. Urg'u tilda so'zning ma'nosini ajratish, muhim axborotni ta'kidlash, nutq ohangini aniqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek tilida urg'uni 2 turga ajratish mumkin: a) so'z urg'usi (lug'aviy urg'u); b) fraza urg'usi (mantiqiy urg'u). Ikki va undan ortiq bo'g'inli so'zlarda shu bog'inlardan birini ajratib, kuchli talaffuz etilishi so'z urg'usi deyiladi. So'z urg'usi o'z navbatida, so'zning qaysi bo'g'inga tushishi, qaysi bo'g'inga biriktirilganligiga ko'ra 2 turga ga bo'linadi: bog'liq urg'u va ko'chma (erkin) urg'u. Bog'liq urg'u so'zda bo'g'inlar soni o'zgarishi (ortishi)ga qaramay, o'rni o'zgarmaydigan urg'ulardir (masalan, rus tilida ham). Ko'chma urg'u affiksatsiya jarayonida so'zda bo'g'inlar soni orta borishi bilan o'rnini o'zgartira boradigan, ya'ni oxirgi bo'g'inga siljib boradigan urg'udir. Masalan, o'zbek tilida so'z urg'usi shunday: o'qit — o'qituv — o'qituvchi — o'qituvchilik. Ayrim holatlarda so'z urg'usi ma'no farqlash vazifasini ham bajaradi: olma (fe'l) — olma (ot: meva); osma (fe'l: biror narsani osib qoyishning, bo'lishsizlik shakli) — osma (ot: tibbiyot anjomi). Bu holatlarda ot so'z turkumida bo'lishi uchun urg'u birinchi bo'g'inga, fe'l so'z turkumida bo'lishi uchun esa ikkinchi bo'g'inga tushishi zarur. Bundan tashqari, urg'u so'z shaklini farqlashda ham xizmat qiladi: ishchimiz (bizning ishchi) — ishchimiz (biz — ishchi); otingiz (sizning otingiz) — otingiz (miltiqni oting) kabi.

Fraza urg'usi (mantiqiy urg'u) sintaktik tuzilma tarkibidagi biror bo'lakni — ma'no jihatidan muhim bo'lgan nutq taktini (sintagma)ni boshqalaridan ajratib ko'rsatadi. Fraza urg'usi qaysi bo'lakka tushsa, o'sha bo'lak axborot tashishdagi eng ahamiyatli bo'lak hisoblanadi. Masalan : O'zbek sportchilari olimpiada o'yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etdilar. Bu yerda *o'zbek sportchilariga* alohida urg'u beriladi. — O'zbek sportchilari olimpiada o'yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etdilar. Bu qismida esa *olimpiada o'yinlari* diqqat markaziga olingan. — O'zbek sportchilari olimpiada o'yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etdilar. *Muvaffaqiyatli ishtirok etdilar* so'z birikmasiga urg'u qaratilgan.

Ingliz tilida urg'u (stress) muloqot jarayonida to'g'ri tushunish va talaffuzning ravshanligi va tabiiyligini oshirish uchun xizmat qiladi. Ba'zi so'zlardagi urg'uga e'tibor beraylik: fast (tez) – 1 syllable (bo'g'in);

person (inson) – 2 syllables - urg'u birinchi bo'g'inga tushadi;

beautiful (chiroyli) – 3 syllables – urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadi;

information (ma`lumot) – 4 syllables - urg`u ikkinchi bo`g`inga tushadi.

Ingliz tilida so`z urg`usi bilan bog`liq ba`zi qoidalar mavjud va bu qoidalar so`z urg`usini topishda foydali asos bo`lishi mumkin. Ammo ushbu qoidalarning istisno holatlari ham mavjud.

1. Ko`pchilik 2 bo`g`inli ot va sifatlarda urg`u birinchi bo`g`inga tushadi.

Masalan: picture (rasm), clever (aqlli)

2. Ko`pchilik 2 bo`g`inli fe`llarda esa urg`u ikkinchi bo`g`inga tushadi.

Masalan: decide (qaror qilmoq), arrive (yetib kelmoq)

3. 3 yoki undan ortiq so`zlarda urg`u har qanday joyda kelishi mumkin, bunda aniq qoidaga rioya qilish kerak emas

E`tibor beraylik: *present* va boshqa shu kabi so`zlarning ot va fe`l shakllari mavjud. Bu holatlarda yuqorida aytib o`tilgan qoidaga asoslanib ish ko`riladi.

Pre-sent (sovg`a) – *pre-sent* (ko`rsatmoq)

Re-cord (qaydnoma) – *re-cord* (yozib olmoq)

In-crease (oshirish) – *in-crease* (oshmoq)

Ko`p bo`g`inli so`zlarda urg`uni aniqlash biroz mushkul. Bu holatlarda ham ba`zi bir qoidalar mavjud:

1. Agar so`z -tion,-sion, -cian, -cial bilan tugasa, urg`u bu qo`shimchalardan oldingi bo`g`inga tushadi.

Masalan: col-*lec*-tion, *ten*-sion, mu-*si*-cian, fi-*nan*-cial

2. Agar so`z -ic, -ical, -al,-ally bilan tugasa, urg`u bu qo`shimchalardan oldingi bo`g`inga tushadi.

Masalan: ec-o-*nom*-ic, his-*tor*-i-cal

3. Bir so`z o`zagidan hosil qilingan so`zlarda urg`u saqlanib qolishi mumkin.

Masalan: ec-o-*nom*-ic, ec-o-*nom*-ical, ec-o-*nom*-ical-ly.

Xulosa qilib aytganda, urg`u har ikkala – o`zbek va ingliz – tillarida so`zlarning to`g`ri talaffuzi va tushunilishi uchun muhim fonetik hodisa hisoblanadi. Ingliz tilida urg`u

ayniqsa muhim bo‘lib, u so‘zning ma’nosini, turini (masalan, ot yoki fe‘l) farqlashi va noto‘g‘ri urg‘u butunlay boshqa so‘z sifatida qabul qilinishiga olib kelishi mumkin. O‘zbek tilida esa urg‘u odatda so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi va ma’noga kuchli ta’sir ko‘rsatmaydi, lekin talaffuz ohangini belgilaydi. Demak, ingliz tilida urg‘uni to‘g‘ri ishlatish nutqning aniqligi va ravonligini ta’minlasa, o‘zbek tilida esa urg‘u nisbatan erkin bo‘lib, ma’no o‘zgarishiga sabab bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev, G‘. G‘. (2006). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Fan.
2. Sulaymonova, T. Y. (2007). O‘zbek tilining fonetikasidan ma’ruzalar matni. Toshkent: O‘zMU nashriyoti.
3. Yoqubov, O‘. (1999). O‘zbek tilshunosligi asoslari. Toshkent: O‘qituvchi.
4. Roach, P. (2009). English phonetics and phonology (4th ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
5. Kenworthy, J. (1987). Teaching English pronunciation. London: Longman.